

**O'ZBEK XALQ QAHRAMONLIK ERTAKLARINING USLUBIY
XUSUSIYATLARI (“GO'RO'G'LI” DOSTONI MISOLIDA)**

Usmonova Gulbahor Rahmatillo qizi

*Namangan davlat pedagogika instituti O'zbek va xorijiy tillar kafedrasи
O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

Telefon: +998 77 296 01 29

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining yirik namunalaridan biri bo'lgan “Go'ro'g'li” dostoni uslubiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda qo'llanilgan badiiy vositalar – mubolag'a, tazmin, takror, poetik obrazlar, dramatik dialoglar xalqning estetik qarashlari va badiiy tafakkurini ifodalashi nuqtayi nazaridan o'rGANILADI. Dostonning og'zaki ijodga xos bo'lgan poetik shakli, ritmik struktura va obrazlar tizimi ilmiy-nazariy jihatdan talqin etiladi.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, epik doston, “Go'ro'g'li”, uslub, mubolag'a, tazmin, obraz, dramatizm.

O'zbek xalq og'zaki ijodi turli janrlar orqali xalqning tafakkuri, hayotga munosabati va estetik qarashlarini ifoda etadi. Ayniqsa, qahramonlik ertaklari xalqning orzu-umidlarini,adolat va ezgulik g'oyalarini o'zida mujassam etgan janr sanaladi. Bunday ertaklarda til vositalari orqali dramatik holatlar va qahramonlik obrazlari kuchli ta'sir bilan yoritiladi. Xalq og'zaki ijodi — millat ma'naviyatining eng qadimiy va sermazmun qatlamidir. Ayniqsa, qahramonlik ertaklari xalqning tarixiy xotirasi, orzu-umidlari va axloqiy mezonlarini mujassam etgan noyob janr hisoblanadi. O'zbek xalq ertaklari orasida “Algomish”, “Go'ro'g'li”, “Rustam” kabi dostoniy qahramonlar ishtirok etadigan asarlar o'ziga xos uslubiy yondashuvga ega. Qahramonlik ertaklari (epik ertaklar) xalq og'zaki ijodining muhim janrlaridan biri bo'lib, ular asosida jasur, mard,adolatparvar qahramonning g'ayritabiiy kuch, aql-zakovat yoki sadoqat bilan yovuz kuchlarga qarshi kurashi tasvirlanadi. Bu ertaklarda yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash asosiy mavzuni tashkil etadi.

O'zbek xalq og'zaki ijodining bebaho boyligi bo'lgan epik asarlar — doston va qahramonlik ertaklari — xalqning tarixiy xotirasi, estetik dunyoqarashi va orzu-umidlarini mujassam etgan badiiy manbalardir. Xususan, “Go'ro'g'li” dostoni nafaqat o'zbek, balki boshqa turkiy xalqlar orasida ham keng tarqalgan epik dostonlar sirasiga kiradi. Bu doston xalq orzu qilgan ideal qahramon —adolatparvar, jasur va fidoyi inson obrazini yaratish orqali asrlar davomida o'zining hayotiy kuchini yo'qotmagan. Maqolada ushbu dostonning uslubiy xususiyatlari ilmiy-nazariy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

1. “Go'ro'g'li” dostoni – xalq qahramonlik tafakkurining badiiy ifodasi. “Go'ro'g'li” dostoni xalq baxshilari tomonidan asrlar davomida og'zaki ravishda ijro etilib kelgan. Har bir baxshi dostonni ijro etishda unga o'z ijodiy yondashuvini qo'shgan, shuning

uchun dostonning turli variantlari mavjud. Bu esa uning xalq badiiy tafakkuridagi chuqr ildizlariga dalolat beradi.

2. Mubolag‘a – epik obrazni ulug‘lash vositasi. Dostondagi mubolag‘alar epik badiiylikning asosiy unsurlaridan biri hisoblanadi. Qahramonlarning kuchi, jasorati, qilgan ishlari shunchalik oshiriladiki, ular oddiy inson qobiliyatidan ancha yuksak ko‘rinadi. Bu vosita qahramonlik ruhini kuchaytiradi.

3. Tazmin va takror – og‘zaki badiiy shaklning tarkibiy qismlari. “Go‘ro‘g‘li” dostoni xalq baxshilarining kuy va ohangda ijro etishiga mo‘ljallanganligi sababli tazmin va takror vositalari undan keng o‘rin olgan. Bu vositalar tinglovchining e’tiborini jalg qilishga xizmat qiladi.

4. Simvolik obrazlar – estetik tafakkurning timsollari. Go‘ro‘g‘lining oti – G’irot – do‘stlik va sadoqat ramzidir. Go‘ro‘g‘lining o‘zi esa adolat, jasorat va vatanparvarlik timsolidir. Bu obrazlar xalqning ma’naviy qadriyatlarini aks ettiradi.

5. Dialog va dramatizm. Dostonda dramatik kuchni kuchaytiruvchi yana bir uslubiy vosita — dialoglardir. Qahramonlar o‘rtasidagi so‘zlashuvlar orqali ziddiyatlar, yechimlar va syujet dinamizmi ifodalanadi.

6.Qahramonlik obrazining shakllanish bosqichlari. “Go‘ro‘g‘li” dostoni qahramoni o‘zining murakkab hayotiy yo‘li, ruhiy kamoloti, yovuzlikka qarshi kurashi orqali shakllanadi. U dastlab otasining o‘limi, onasining duosi va o‘zining mehnati tufayli shaxs sifatida yetuklashadi. Bu bosqichlar orqali obraz nafaqat epik qahramon, balki milliy ideallarni mujassam etuvchi timsol sifatida qaraladi.

7. “Go‘ro‘g‘li” dostoni tilining poetikati. Doston tilining boyligi, obrazliligi va xalqona ohanglari uni og‘zaki ijod an’analarining yorqin namunasi sifatida ajratib turadi. Unda she’riy uslub, maqollar, aforizmlar, xalqona iboralar keng qo‘llaniladi.

8. Go‘ro‘g‘lining o‘ziga xos qahramonlik falsafasi. Go‘ro‘g‘lining qahramonlik falsafasi nafaqat janglarda g‘alaba qilishda, balki do‘stga sadoqat, dushmanga adolat bilan yondashish, xalqni birlashtirish va ijtimoiy tenglikni ta’minalash g‘oyalari bilan ham namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, “Go‘ro‘g‘li” dostoni xalq og‘zaki ijodining yirik namunasi bo‘lib, undagi uslubiy xususiyatlar asarning estetik qiymatini oshiradi. Asardagi mubolag‘a, poetik takror, simvolik obrazlar va dramatik voqealar dostoniga xalq hayotining badiiy ifodasi sifatida qarash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. “Go‘ro‘g‘li” dostoni. Toshkent, 1988.
2. Mirvaliyev B. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Toshkent: O‘zbekiston, 2005.
3. Yo‘ldoshev A. Xalq eposining poetik xususiyatlari. Toshkent: Fan, 1993.
4. Salomov G. O‘zbek xalq dostonchiligi. Toshkent: Fan, 1971.
5. Axmedov S. O‘zbek folklorining janr tizimi. Toshkent: TDPU, 2011.